

ARAB TILIDA TUB KO'MAKCHILARNING
MA'NOLARI («AL-MUFASSAL» ASARI
MISOLIDA)

ЗНАЧЕНИЯ ПРЕДЛОГОВ В АРАБСКОМ
ЯЗЫКЕ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ
«АЛ-МУФАССАЛ»)

THE MEANINGS OF PREPOSITIONS
IN ARABIC (IN THE EXAMPLE OF THE
BOOK «AL-MUFASSAL»)

Malika NASIROVA,
ORIENTAL UNIVERSITU
doctor of philosophy PhD
Vice-rector for scientific affairs
m.nasirova@iiu.uz

154A, Shota Rustaveli, Tashkent, 100121, Uzbekistan

DOI: 10.47980/IIAU/2024/2/1

ANNOTATSIYA. Mahmud Zamakhshariy arab tili grammatikasini so'z turkumlari bo'yicha bayon qilgan "Al-Mufasssal fi san'ati-l-i'rab" asarida arab tilidagi "harf" so'z turkumi haqida shunday fikrni bildirgan: "الحرف ما دل على معنى في غيره و من ثم لم ينفك من اسم وفعل يصحبه الا في مواضع مخصوصة حذف فيها الفعل واقتصر على الحرف فجرى مجرى النائب Harf [bu shunday so'z turkumi-ki] uning ma'nosi boshqa so'z turkumida topiladi. Shuningdek, u ism va fe'l ma'nosidan holi bo'lgan so'z bo'lib, ba'zi holatlarda fe'l tushib qolganda, harf uning o'rnida keladi va ma'nosini saqlab qoladi". Harf, ya'ni yordamchi so'zlar tasnifi asarning 3-bobida bayon etilgan. Bob 23 ta faclga bo'lingan bo'lib, ularda arab tilidagi yuklama, bog'lovchi, old ko'makchilar haqida ma'lumot beradi. (Nasirova, Malika. 2021:6650)

Ularning tasnifi quyidagicha:

حروف الإضافة ismlarni qaratqich kelishigida boshqaradigan old ko'makchilar; والحروف المشبهة بالفعل - fe'llarga o'xshash yuklamalar; deb nomlangan mazkur turga oltita yuklama kiradi, ular o'zidan keyin fe'l kabi tushum kelishigini talab qiladi; حروف العطف bog'lovchilar; حروف النفي inkor yuklamalari; حروف التنبيه ogohlantirish ma'nosidagi yuklamalar; حروف النداء undov yuklamalar; حروف التصديق tasdiq yuklamalar; حروف الاستثناء istisno yuklamalar; حروف الخطاب xitob yuklamalari; حروف الصلة nisbiy olmoshlar; حروف التفسير tushuntirish, izoh berish yuklamalari; الحرفان المصدريان ikki masdar yuklamasi (fe'llarning otlashishiga sabab bo'ladigan yuklamalar); حروف التحضيض undash, da'vat yuklamalari; حروف التقريب yaqinlatiruvchi yuklama; حروف الاستقبال [ikki] so'roq yuklamasi; حروف الاستفهام [ikki] shart yuklamasi; حروف الشرط maqsad, sabab yuklamasi; حروف الردع qat'iy inkor yuklamasi; حروف اللامات [turli vazifalarda kehuvi] yuklamasi; حروف التانيث الساكنة o'tgan zamon birlik, muannas jins uchunchi shaxs, fe'lga qo'shiladigan harfi; حروف التانيث الساكنة - fe'llarga qo'shiladigan ta'kidni anglatuvchi harfi,

هـاء السكت - pauzal "h" harfi (pauzada qo'llanadigan harfi.).

Ushbu maqoada arab tilida tub ko'makchilarning ma'nolari Zamaxshariyning "al-mufasssal" asari misolida tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: "harf" so'z turkumi, ko'makchi, yuklama, bog'lovchi, old ko'makchilar

АННОТАЦИЯ. Махмуд Замахшари в своем труде «Ал-Муфасссал фи санъати-л-и-раб», объяснявшем грамматику частей речи арабского языка, высказал следующее мнение о части речи в арабском языке «харф», т.е. вспомогательных словах: "الحرف ما دل على معنى في غيره و من ثم لم ينفك من اسم وفعل يصحبه الا في مواضع مخصوصة حذف فيها الفعل واقتصر على الحرف فجرى مجرى النائب Харф [такая часть речи, что], ее значение находится в другой части речи. Это также слово без значения существительного и глагола, а в некоторых случаях, когда глагол отбрасывается, буква встает на его место и сохраняет его значение. Классификация букв, то есть вспомогательных слов, описана в 3-й главе работы. Глава разделена на 23 пункта, в которых содержится информация о предикатах, союзах и предлогах в арабском языке (Насирова, Малика. 6650 :2021). Их классификация следующая:

حروف الإضافة - вспомогательные предложные средства, управляющие существительными и именительном падеже; والحروف المشبهة بالفعل - предлоги, подобные глаголам, этот тип, называемый предлогами, включает шесть предлогов, требующих глагольного окончания; حروف العطف - связки; حروف النفي - отрицательные частицы; حروف التنبيه - частицы предупреждения; حروف النداء - восклицательные предлоги; حروف الاستثناء - утвердительные частицы; حروف التصديق - частицы исключения; حروف الخطاب - зательные частицы; حروف الصلة - относительные местоимения; حروف التفسير - частицы объяснения, комментирования; الحرفان المصدريان - предлоги, благодаря которым глаголы становятся причастиями; حروف التحضيض - частицы призывания; حروف التقريب - частицы приближающегося действия; حروف الاستقبال - частицы будущего времени; حروف الاستفهام - [две] вопросительные частицы; حروف الشرط - [две] условные частицы; حروف التعليل - частицы цели, причины; حروف الردع - частицы отрицания; حروف اللامات - предлог ل [различного применения]; حروف التانيث الساكنة - буква «т», добавляемая к глаголу прошедшего времени единственного числа, третьего лица, женского рода, ; حروف النون المؤكدة - буква «н», добавляемая к глаголам и означающая усиление; هـاء السكت - паузальная буква «h» (буква h, используемая в паузе).

Ключевые слова: «харф», вспомогательная часть речи, предлог, частица.

ANNOTATION. Mahmoud Zamakhshari in his book "Al-Mufasssal fi san'ati-l-i'rab", which explained the Arabic language grammar by parts of speech, expressed the following opinion about the part of speech in the Arabic language "harf": "الحرف ما دل على معنى في غيره و من ثم لم ينفك من اسم وفعل يصحبه الا في مواضع مخصوصة حذف فيها الفعل واقتصر على الحرف فجرى مجرى النائب Harf [is a such part of speech that] its meaning is found in another part of speech. It is also a word without a noun or verb meaning, and in some cases, when a verb is omitted, harf takes its place and retains its meaning. The classification of harf, that is, auxiliary words, is described

in the 3rd chapter of the book. The chapter is divided into 23 paragraphs, which provide information about predicates, conjunctions and prepositions in Arabic (Nasirova, Malika. 2021: 6650). They are classified as following:

حروف الإضافة – auxiliary prepositional means that control nouns in the nominative case; **والحروف المشبهة بالفعل** – this type, called verb-like prepositions, includes six prepositions that require a verb-like object after them.; **حروف العطف** – conjunctions; **حروف النفي** – negative particles; **حروف التنبيه** – warning particles; **حروف النداء** – exclamatory particles; **حروف التصديق** – affirmative particles; **حروف الاستثناء** – particles of exception; **حرفا الخطاب** – vocative particles; **حروف الصلة** – relative pronouns; **حرفا التفسير** – particles of explanation, commenting; **الحرفان المصدريان** – two infinitive prepositions (prepositions that cause the conjugation of verbs); **حروف التحضيض** – particles of invocation; **حرف التقريب** – particles of approaching action; **حروف الاستقبال** – future tense particles; **[two] حرفا الشرط** – [two] interrogative particles; **حرفا الاستفهام** – conditional particles; **حرف التعليل** – particles of purpose, reason; **حرف الردع** – particles of denial; **اللامات** – preposition **ل** [various uses]; **تاء التانيث الساكنة** – the letter “ت” added to the past tense singular, third person, feminine verb; **لنون المؤكدة** – the letter “ن”, which means emphasis added to verbs; **هاء** – pause letter “ه” (letter h used in pause). In this article, the meanings of the particles in the Arabic language are studied on the example of Zamakhshari's book “al-mufasssal”.

Key words: “harf” – part of speech, particle, conjunction, preposition.

KIRISH

Ma'lumki, arab tilidagi “Harf” soʻz turkumidagi oid koʻmakchi, predlog va yuklamalar “izofa harflari” deb nomlanadi. Chunki, bu harflar oʻzidan oldingi feʼllarning maʼnolarini oʻzidan keyin kelgan ism soʻz turkumidagi soʻzlar bilan bogʻlaydi. Shuningdek, bular arab tili grammatikasida “hurufu-l-jar”lar, yaʼni oʻzidan keyin kelgan ism soʻz turkumidagi soʻzlarni qaratqich kelishida turishini talab qiluvchi predloglar, deb nomlanadi. Chunki ushbu predloglardan soʻng kelgan “Ism”larni doim qaratqich kelishigida turishini talab qiladi.

Ammo bunday predloglar (yuklama va old koʻmakchilar)ning oʻzi kelishiklarda turlanmaydi. Arab tilshunoslari soʻzlarni kelishikda oʻzgarishiga koʻra ikki guruhga: *mabniy* va *muʼrob* soʻzlarga ajratib oʻrganadilar. Agar soʻz boshqa bir soʻzga bogʻliq boʻlsa yoki oʻzidan avval biror bir omil kelsa-yu, u oʻz kelishik koʻrinishini oʻzgartirmasa (yaʼni soʻzning oxirgi harakati oʻzgarmasa) bunday soʻzlar *mabniy* deyiladi va ular umuman oʻzgarmaydigan soʻzlardir.

Turlanmaydigan soʻzlarga barcha yuklamalar, predloglar, oʻtgan zamon feʼli, feʼlning buyruq mayli, taʼkid nuni yoki muannaslik nuni birikib kelgan feʼl va baʼzi ismlar kiradi. Feʼllar va yuklamalar asli turlanmasdir.

Shuni taʼkidlash kerakki, yordamchi soʻzlar ehtiyoj boʻlmagani uchun turlanmaydi. Chunki asosiy tarkibiy maʼno boʻlgandagina turlanishga ehtiyoj boʻladi. Yordamchi soʻzlarning yolgʻiz oʻzi esa hech qachon maʼno anglatmaydi (Nasirova, Malika. 2020: 117)

Old koʻmakchilarni Zamaxshariy quyidagicha taʼriflaydi va tasniflaydi: **حروف الإضافة** سُمِّيَتْ بِذَلِكَ لِأَنَّ وَضْعَهَا عَلَى أَنْ تُقْضِيَ بِمَعْنَى الْأَفْعَالِ إِلَى الْأَسْمَاءِ وَيَفُوضُ فِي ذَلِكَ وَ أَنْ اخْتَلَفَتْ بِهَا وَجْهَ الْإِفْضَاءِ وَ هِيَ عَلَى ثَلَاثَةِ أَضْرِبٍ ضَرْبُ لَازِمٍ – *old koʻmakchilarning bunday nomlanishiga sabab ularning vazifasi feʼl maʼnosini ismga bogʻlashdir. 3 xil bogʻlash turi mavjud boʻlib, ular: yuklama sifatida maʼnoga ega soʻz, ot-old koʻmakchilar, feʼl-old koʻmakchilar*”. Ikkinchi va uchunchi turdagi *old koʻmakchilar* ism va feʼldan oʻsib chiqqan boʻlib, oʻz maʼnolarini deyarli yoʻqotganlar.

USLUBLAR

Mazkur maqolada mavarounnahrlik buyuk tilshunos olim Mahmud Zamaxshariy XI asrda arab tilining nazariy asoslarini takomilashtirgan “المفصل في” asarida keltirgan “harf” soʻz turkumiga kiruvchi turli koʻmakchilar va ularning maʼnolariga oid masalalar taqqoslash, analiz, sintez metodlari asosida tahlil qilingan.

TAHLIL

Birincini turdagi koʻmakchilar:

I. **koʻmakchisining maʼnolari**

Mahmud Zamaxshariy “al-Mufasssal” asarining “Harf” bobida «مِنْ» “min” predlogi haqida quyidagicha keltiradi: «مِنْ» predlogining bir qancha maʼnolari mavjud. Jumladan,

Chegaraning boshlanishi. Masalan: **صِرْتُ مِنَ الْبَصْرَةِ** – *Basradan yurdim.*

Butundan qismni ifodalash. Masalan: **أَخَذْتُ مِنَ الدَّرَاهِمِ** – *Dirhamlardan oldim.*

Bayon qilish, aniqlashtirish. Masalan: **فَاجْتَنِبُوا** – *Bas, butlardan iborat najosatdan uzoqlashinglar*” (Mansur, Abdulaziz. 2012:335).

qoʻshimcha qilish. **مَا جَاءَنِي مِنْ أَحَدٍ** – *Oldimga bir kishi ham kelmadi.*

Sibavayhi asarlarida faqatgina inkor maʼnodagi boʻlishsiz gaplarda qoʻshimcha qilish maʼnosi koʻrsatilgan. “U (yani Sibavayhi) boʻlishli gaplarda ham berish mumkinligidan bexabar boʻlgan”, -deb yozadi Mahmud Zamaxshariy. (*Zamaxshariy, Mahmud. 1987:283*)

Muallifning yuqoridagi fikrlarini sharhlaydigan boʻlsak, u soʻzini مِنْ predlogining maʼnolaridan

boshlagan. Chindan ham bu predlogning bir nechta ma'nolari mavjud bo'lib, uning gapda kelish o'rniga qarab ma'nolari o'zgarishi mumkin bo'ladi. Bu ma'nolarni birma-bir tahlil qilib chiqamiz.

Demak, birinchi ma'nosi bu harakat boshlangan nuqtani belgilash. Ammo yaxshi bilamizki, har bir boshlangan harakat bir joyga kelib tugaydi. Uning tugash nuqtasini esa *إلى* ko'makchisi belgilab beradi. *من* ko'makchisi aksar hollarda mana shu ma'noda ishlatiladi. Sibavayhining "al-Kitob" asarida bu ko'makchi faqatgina o'rin-joy uchun qo'llanilishi ko'rsatilgan. Keyinchalik Abu Abbos al-Mubarrad bu predlog faqatgina o'rin-joyini chegarasinigina emas, barcha chegaralarni belgilab bera olishi mumkinligini aytdi. Bu fikrga esa, boshqa Basra maktabi vakillari ham qo'shilishgan. *من* ko'makchini quyidagi turli holatlarda qo'llash mumkin. *كُفَادَانَ خَرَجْتُ مِنَ الْكُوفَةِ - Kufadan chiqdim; فَالونحِي مَعَا يَوَقْدِي - Falonchi menga yoqdi; مِنْ فُلَانٍ عَجَبْتُ مِنْ فُلَانٍ - Falonchidan falonchiga.* Qur'on karimda ham quyidagicha kelgan: *وَإِذْ غَدَوْتَ مِنْ أَهْلِكَ تُبَوِّئُ الْمُؤْمِنِينَ مَقَاعِدَ - Ahlingdan ertalab chiqib, mo'minlarni urush joylariga turg'izganingni esla!* ya'ni, ahlingizning uyida, uyingizdan ma'nolarida keldi (Muhammad Sodik Muhammad Yusuf.(1). 2014:401). Bunda o'rin-joyini belgilab berdi. Boshqa bir oyatda esa, *نَذِيْنَةُ مِنَ جَانِبِ الطُّورِ - Unga Turning o'ng tomonidan nido qildik*, - deya nidoning chegarasi belgilanmoqda (Muhammad Sodik Muhammad Yusuf.(3).2014:548). Shuning uchun kufalik tilshunoslar bu predlogni vaqtga nisbatan ham ishlatishga ruxsat berganlar. Bu Abu Abbos al-Mubarrad va бoшкa тилшунoсларнинг fikrlari edi. Bunda *من* ko'makchisi *مُنْذُ، مُنْذُ* - (vaqtga nisbatan) -*dan, -dan beri* predloglarining o'rnida qo'llanilishi mumkinligi aytilgan. Bunga misol qilib quyidagi oyatni keltirish mumkin: *لَا تَقُمْ فِيهِ أَبَدًا لِمَسْجِدٍ أُسَسَّ عَلَى التَّقْوَى مِنْ أَوَّلِ يَوْمٍ - Albatta, birinchi kundan taqvo asosida qurilgan masjidda turmoqligini haqdir* (Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. (2).2014: 612)

Ayrim, *من* predlogini vaqtga nisbatan ishlatish fikriga qo'shilmaydiganlarga, yuqoridagi oyat misol qililib, vaqtga nisbatan ham ishlatish mumkinligi isbotlanadi. Ma'lumki, arab tili grammatikasi uchun Qur'on asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Undan olingan misollar hech qachon rad qilinmaydi. Bu misolda *من* predlogi "avvalgi kundan" ma'nosida bo'lib, zamonga ishora qilmoqda. Masalan:

ma'nosida ishlatilgan. *إِنَّا نُؤَدِّي in'ay فِي يَوْمِ الْجُمُعَةِ لِلصَّلَاةِ مِنْ يَوْمِ الْجُمُعَةِ*

من predlogining ma'nolaridan yana biri bu - butundan qismni ifodalash (tab'iziya) "баъзи бир, айрим" ma'nosidir. Masalan: *أَخَذْتُ دِرْهَمًا مِنَ الْمَالِ - puldan bir dirham oldim.* Bunda *من* puldan bir qismini olganligini ifodalamoqda. Abu Abbos al-Mubarrad

aytadi: Bu predlog quyidagi o'rinda Sibavayhi *أَخَذْتُ «uning molidan oldim» misolini keltirib, bunda «من» predlogi ish-harakatning boshlanish o'rnini belgilab beradi deganidek emas, bir butun bo'lgan narsani qismga bo'lish ma'nosini ifodalamoqda. Yana bir misol: isalmuj جَاءَنِي مِنَ الرِّجَالِ adilsa جَاءَنِي بَعْضُ مِنَ الرِّجَالِ.*

Ushbu predlogning uchinchi ma'nosi bu - ifodalanayotgan narsa, predmetni nimadan tayyorlanganligi, yoki nimadan tashkil topganligi (tabyiniya) bayon etishdir. Masalan: *ثَوْبٌ مِنْ صُوفٍ - Jundan bo'lgan kiyim; خَاتَمِي مِنْ فِضَّةٍ - Uzugim kumushgan yasalgan.*

Uning so'ngi ma'nosi qo'shimcha (zoida) so'z bo'lib kelishidir. Masalan: *مَا جَاءَنِي مِنْ أَحَدٍ - Oldimga bir kishi ham kelmadi.* Bunda "oldimga hech kim kelmadi" jumlasiga "bir kishi ham" birikmasi qo'shimcha qilinmoqda. Aslida esa, *oldimga hech kim kelmadi* va "oldimga bir kishi ham kelmadi" jumllarining ma'nolari ayni bir ma'no. Lekin ikkinchi jumlada ma'no kuchayishi hodisasi mavjuddir. Ya'ni unda bir kishi ham kelmaganligi ta'kidlanmoqda. *من* indik'at adilsa ihsilek bil'ob adioz adalmuj gnin ahemihs'oq *من* kedgninuhS. idatalgna (zoida) so'z bo'lib kelishiinkor fe'lli jummalarga xos hisoblanadi. Gohida *من* tushib qoladi. Masalan *مُوسَى قَوْمَهُ* shaklida *أَخَافُ أَسَدًا* idal'ob jumlasida aslida *أَخَافُ مِنْ أَسَدٍ* bo'ladi.

II. «إلى» ko'makchisining ma'nolari

«إلى» predlogi o'zbek tilidagi jo'nalish kelishigining qo'shimchasi bo'lmish "-ga" ma'nosini anglatib, harakatning yo'nalishini belgilab berishga xizmat qiladi. Mahmud Zamaxshariy u haqida shunday yozadi:

و(إلى) معارضة لـ (من) دالة على انتهاء الغاية، كقولك: (سرت من البصرة إلى بغداد)، وكونها بمعنى المصاحبة في نحو قوله تعالى: ﴿وَلَا تَأْكُلُوا أَمْوَالَهُمْ إِلَى أَمْوَالِكُمْ﴾ راجع إلى معنى الانتهاء. (Zamaxshariy, Mahmud. 1987:284) - «إلى» predlogi «من» predlogining aksi hisoblanib, ish-harakatning tugash nuqtasini belgilaydi. Masalan: *سِرْتُ مِنَ الْبَصْرَةِ إِلَى بَغْدَادَ - Basradan Bag'dodgacha yurdim*. Shuningdek, u birgalik ma'nosini ham ifodalaydi. Masalan:

«-» *Ularining mollarin o'zingizning mollaringizga qo'shib yemang* (Muhammad Sodik Muhammad Yusuf.2014: 478).

Muallif fikrini izohlasak, «من» predlogi ish-harakatning boshlang'ich nuqtasini belgilagani kabi «إلى» predlogi ish-harakatning tugash nuqtasini ifodalaydi. Ya'ni u «من» ning antonimidir. Chunki uning qarama-qarshisi «من» predlogi bog'lanib kelgan taraf hisoblanadi. Shuning uchun uni «من» bilan birga keluvchi antonimi deyiladi. Demak, «إلى» ning tasarrufiga kirgan hudud «من» ning tasarrufida bo'lmaydi yoki aksincha. Masalan: *سِرْتُ مِنَ الْبَصْرَةِ إِلَى بَغْدَادَ - Basradan Bag'dodgacha yurdim*. Shuni ham

ta'kidlash kerakki, «إلى» predlogi Basradan chiqish ish-harakatining tugaganini ham anglatadi. (Ya'ish, Abu-l-Baqo. 2001:463)

Ushbu ikki qarama-qarshi predlog ko'p hollarda birga ishlatiladi. Lekin ba'zida ikkisidan birginasi ishlatishi ham mumkin. Lekin bu holda nozik ma'no farqlanishini kuzatish mumkin. Masalan: «أَنَا خَرَجْتُ مِنْ» - *Men Toshkentdan chiqdim*. Bunda harakatning boshlangani ma'lum, lekin hali biror bir manzilga yetib borilganligi anglashilmaydi. Yoki faqat «إلى» predlogi bilan gapirilsa, masalan: «ذَهَبْتُ إِلَى فَارَغَاتٍ» - *Farg'onaga bordim*, - bajarilayotgan ish-harakat tugaganligi, ya'ni Farg'onaga kirganligi ma'lum, lekin uning boshlang'ich nuqtasi esa noma'lum bo'ladi.

«إلى» predlogining birgalik ma'nosiga kelsak, u faqatgina harakatning tugash nuqtasini emas, balki ba'zi o'rinlarda bajarilayotgan ish-harakat u bo'lganib kelgan so'z ustida ham amalga oshishini ifodalaydi. Buni quyidagi misolda ko'rishimiz mumkin: «إِذَا قُمْتُمْ إِلَى الصَّلَاةِ فَاغْسِلُوا وُجُوهَكُمْ وَأَيْدِيَكُمْ إِلَى الْمَرَافِقِ» - *Agar namozga turmoqchi bo'lsalaringiz yuzlaringizni va qo'llaringizni chig'anoqlari ila yuvinglar* (Muhammad Sodiq, Muhammad Yusuf. (2) 2014:21). Bunda «tirsaklar» ham ish-harakatga daxldordir.

III. «حَتَّى» ko'makchisining ma'nolari.

Ushbu ko'makchi xususida Mahmud Zamakhshariy quyidagi fikrlarni keltirgan:

«وَحَتَّى» فِي مَعَانِهَا، إِلَّا أَنَّهُ تَفَارِقُهَا فِي أَنَّ مَجْرُورَهَا يَجِبُ أَنْ يَكُونَ آخِرَ جُزْءٍ مِنَ الشَّيْءِ، أَوْ مَا يَلَاقِي آخِرَ جُزْءٍ مِنْهُ، لِأَنَّ الْفِعْلَ الْمَعْنَى بِهَا الْغَرَضُ فِيهِ أَنْ يَتَقَضَى مَا تَعْلُقُ بِهِ شَيْئًا فَشَيْئًا حَتَّى يَأْتِيَ عَلَيْهِ، وَذَلِكَ قَوْلُكَ: «أَكَلْتُ السَّمَكَةَ حَتَّى رَأْسِهَا»، وَنَمْتُ الْبَارِحَةَ حَتَّى الصَّبَاحِ، وَلَا تَقُولُ: «حَتَّى يَصْفُهَا، أَوْ ثَلَاثَهَا» كَمَا تَقُولُ: «إِلَى نَصْفِهَا، وَإِلَى ثَلَاثِهَا». وَمَنْ حَقَّقَهَا أَنْ يَدْخُلَ مَا بَعْدَهَا فِيمَا قَبْلُهَا، فِي مَسَائِلِي «السَّمَكَةِ» وَ«الْبَارِحَةِ»، فَقَدْ أَكَلَ الرَّأْسَ، وَنَمِيَ الصَّبَاحَ. وَلَا تَدْخُلُ عَلَى مُضْمَرٍ، فَلَا تَقُولُ: «حَتَاهُ»، (Zamakhshariy, Mahmud. 1987:285)

Demak, muallifning ta'kidlashicha, «حَتَّى» ko'makchisi tub «harf» hisoblanib, u alohida kelganida mustaqil ma'no anglatolmaydigan so'zdir. U «ism» so'z turkumidagi so'zlar bilan birikib kelib, ish-harakatning tugallanish o'rni yoki paytini bildiradi. Uni «إلى» predlogiga qisman sinonim deyish ham mumkin. Masalan: نَمْتُ الْبَارِحَةَ حَتَّى الصَّبَاحِ. Lekin ularning o'zaro nozik farqlari mavjud. Ya'ni, «حَتَّى» yordamchi so'zidan so'ng kelgan gap bo'lagi ham undan oldin kelgan gap bo'laklari kabi ish-harakatning tarkibiga kirgan hisoblanadi. Bu jihatdan «إلى» predlogidan farqlanadi. Masalan:

1. ضَرَبْتُ الْقَوْمَ حَتَّى رَيْدٍ. Barchani, hatto Zaydni ham urdim-

2. دَخَلْتُ الْبَلَدَ حَتَّى الْكُوفَةِ. Kufagacha bo'lgan shaharlarga kirdim-

3. أَكَلْتُ السَّمَكَةَ حَتَّى رَأْسِهَا. Baliqni boshigacha yedim-

نَمْتُ الْبَارِحَةَ حَتَّى الصَّبَاحِ. 4 - Kecha tonggacha uxladim

Ushbu misollar tahlil qilinganda shuni tushunish mumkinki, birinchi «ضَرَبْتُ الْقَوْمَ حَتَّى رَيْدٍ» - Barchani, hatto Zaydni ham urdim" misolida o'sha urish ish-harakatining Zaydning ustida ham amalga oshganligini ko'rsatadi. Ya'ni barcha bilan birga Zayd ham kaltak yeganligi tushuniladi. Bu holatda «Zayd» urilganlarning ichida uruvchiga nisbatan yaqinroq yoki darajasi ulug'roq kishi bo'lishi lozim. «Zayd»ni alohida tilga olinishi uning boshqalar bilan barobar emasligini ta'kidlaydi. Aks holda uni alohida zikr qilinishi hech qanday ahamiyatga ega bo'lmaydi. Ya'ni, «ضَرَبْتُ الْقَوْمَ» - qavmni (barchani) urdim" deyish bilan kifoyalansa ham bo'lar edi. Bunda «barcha» ning ichida «Zayd» ham va boshqalar ham kirib ketadi. Demak, ushbu holatda حَتَّى predlogidan keyin kelgan so'z undan oldin kelgan so'zlar bilan bir ish-harakatning ichida ekanligi va uning boshqalardan ko'ra afzalroq ekanligi tushuniladi.

Ikkinchi «دَخَلْتُ الْبَلَدَ حَتَّى الْكُوفَةِ» - Kufagacha bo'lgan shaharlarga kirdim" misolida kiruvchi kishi faqatgina Kufagacha bo'lgan shaharlarning o'zigagina emas balki, Kufa shahriga ham kirganligi anglashiladi. حَتَّى predlogining ikkinchi ma'no xususiyati chegara ma'nosida qo'llanilganda إلى predlogi kabi boshlangan ish-harakat undan keyin kelgan so'zda tugallanadi.

Uchinchi «أَكَلْتُ السَّمَكَةَ حَتَّى رَأْسِهَا» - Baliqni boshigacha yedim" misolida ham huddi yuqoridagi misollar kabi baliqni yarminigina emas, balki uning boshi ham yeyilganligi, undan hech narsa qolmaganligi ma'nolarini anglatadi.

To'rtinchi «نَمْتُ الْبَارِحَةَ حَتَّى الصَّبَاحِ» - Kecha tonggacha uxladim" misolida «tongda ham uxladim» degan ma'noni tushunamiz (Ya'ish, Abu-l-Baqo. 2001:471).

Shu bilan birga «إلى» predlogining «حَتَّى» dan yana bir farqli jihati unga birikma olmoshlarini qo'shib ma'no ifodalab bo'lmaydi. Huddi «إِلَيْهِ» kabi «حَتَاهُ» deb ishlatib bo'lmaydi. Masalan:

أَنَا ذَهَبْتُ إِلَيْهِ صَبَاحًا أَمْسَ. Men kecha tongda uning oldiga bordim-

أَنَا ذَهَبْتُ حَتَاهُ صَبَاحًا أَمْسَ. shaklida ishlatib bo'lmaydi. Bunday holda gap noto'g'ri tuzilgan hisoblanadi.

نَمْتُ الْبَارِحَةَ حَتَّى kabidir. Masalan: نَمْتُ الْبَارِحَةَ حَتَّى الصَّبَاحِ

- bu ko'makchisi jumla tarkibiga kirib o'zidan keyin turgan hozirgi-kelasi zamon fe'lini «نَمْتُ» muqaddara sababli nasb holatiga qo'yadi. Masalan: سِرْتُ حَتَّى تَغِيْبَ الشَّمْسِ : سِرْتُ حَتَّى أَنْ تَغِيْبَ الشَّمْسُ adilsa isalmuj

gapi esa aslida سِرْتُ سَرِيْعًا حَتَّى أُدْخِلَ الْبَلَدَ

bo'ladi. سِرْتُ سَرِيْعًا حَتَّى أَنْ أُدْخِلَ الْبَلَدَ

ko'makchisi ba'zida bog'lovchi vazifasida ham ishlatiladi. Masalan:

أَكَلْتُ السَّمَكَةَ حَتَّى رَأْسِهَا.

Ba'zida esa ma'nosida tushuntirish, izohlash uchun ishlatiladi va hozirgi-kelasi zamon fe'lini nasb holatiga qo'yadi. Masalan:

لَأَفْتُ حَتَّى أَسْهَلَ النَّحْوَ av تَرَهَّدْتُ حَتَّى أُدْخِلَ الْجَنَّةَ.

Gohida "ibtidai kalam" bo'lib boshqa, ikkinchi jumlaning boshida turadi. Bunday holatda "... gacha « ma'nosida keladi. Masalan:

أَكَلْتُ السَّمَكَةَ حَتَّى رَأَيْتُهَا؛ إِنْجَهَدْتُ الْبَارِحَةَ حَتَّى لَمْ أَنْتُمْ أَصْلًا.

Ba'zi nasb holatidagi hozirgi-kelasi zamon fe'linidan oldin keladi. Masalan: أَجْتَهَدُ حَتَّى أَكُونَ غَالِمًا: aslida esa bu jumla bo'ladi. - bo'ladi.

Bu gapda hozirgi-kelasi zamon fe'lini tushib qolgan ko'makchisi nasb holatida turibdi. Shuning uchun ham bu gap hukman majrur hisoblanadi.

ko'makchisi gapi kabi yuklamalar bilan kelmaydi.

IV. ko'makchisining ma'nolari.

"fi" predlogi so'zlarga birikib, o'zbek tilidagi o'rin-payt kelishigining qo'shimchasi bo'lmish "da" ma'nosini ifodalab keladi. Bu ko'makchi haqida Zamaxshariy shunday yozadi:

و«في» معناها الظرفية، كقولك: «زيد في أرضه»، و«الركض في الميدان»، ومنه «نظر في الكتاب»، و«سعى في الحاجة». وقولهم في قول الله تعالى: ﴿وَلَأَصْلِبَنَّكُمْ فِي جُزُوعِ النَّخْلِ﴾: إنها بمعنى «على» عمل على الظاهر، والحقيقة أنها على أصلها لتمكن المصلوب في الجزع تمكن. (Zamaxshariy, Mahmud. 1987:284)

Zamaxshariyning yuklamasi haqida bildirgan fikrlarini o'rganadigan bo'lsak, unda aytilishicha, hol (o'rin-payt) ma'nosida keladi. Bunga misollar:

- Im t i h o n ertalab[da bo'ladi]

- Zayd o'z yerida

- Yugurish maydonda (bo'ladi)

- Kitobga qaradi

- Hojatga erishdi

- Darsimni sinfda

o'qidim

- "Va, albatta, sizlarni xurmo tanasiga osurman." Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (3). 2014:591)

Ko'rinib turibdiki, fi predlogi ism so'z turkumidagi so'zlar bilan bog'lanib kelib, uning egallagan o'rnini yoki paytini bildiradi. "Zayd o'z yerida" misolida fi ko'makchisi Zaydning qayerda ekanligini anglatib, uning o'rnini ko'rsatib kelmoqda. "Imtihon ertalab[da bo'ladi]" misolida esa, fi ko'makchisi ism so'z turkumidagi so'z bilan bog'lanib kelib, uning paytini, vaqtini aniqlashda xizmat qilyapti. Ya'ni Imtihon ertalab, tongda bo'lib o'tishi haqida xabar bermoqda.

Shuningdek, u fe'l turkumidagi so'zlar bilan qo'shib, ish-harakatning amalga oshish joyini yoki paytini anglatishi mumkin. Masalan: - قرأت درسي في الفصل

darsimni sinfda o'qidim. Bu gapdagi o'qish ish-harakati sinfda amalga oshirilishi fi predlogi orqali ifodalangan.

Ushbu aytilayotgan o'rin-payt majoziy ma'noda ham qo'llanishi mumkin. Masalan: uning qo'lida uy bor, ya'ni uning o'z hovlisi, uyi bor ma'nosida kelgan. Aslida uy qo'lga sig'maydi.

V. ko'makchisining ma'nolari.

ko'makchisi o'zidan keyin kelayotgan so'zni qaratqich kelishigida turishini talab qiluvchi ko'makchilardan biri hisoblanib, u cheklov ma'nosini bildiradi. Zamakhshariy o'z asarida u haqida quyidagicha yozadi:

و«رُبَّ» للتقليل، ومن خصائصها أن لا تدخل إلا على نكرة ظاهرة، أو مضمرة، فالظاهرة يلزمها أن تكون موصوفة بمفرد، أو جملة، كقولك: (Zamaxshariy, Mahmud. 1987:286)

ko'makchisi cheklashni ifodalaydi, u noaniq holatdagi aniqlanmishga tegishli bo'lib, aniqlovchisi bir so'zdan iborat bo'ladi. Masalan:

- Birgina saxiy odam

Shuningdek, noaniq holatdagi aniqlanmishga tegishli bo'lib, aniqlovchisi jumladan iborat bo'lishi ham mumkin. Masalan:

- Saxovatli otasi bo'lgan birgina kishi

Shuningdek, ko'makchisi birikma olmoshlari bilan ham qo'shib kelishi mumkin. U haqida Zamaxshariy shunday deydi:

والمضمرة حقها أن تفسر بمنصوب، كقولك: «رُبَّه رجلًا». ومنها أن الفعل الذي تسطره على الاسم يجب تأخره عنها، وأنه يجيء محذوفًا في الأكثر، كما حذف مع الباء في (يسم الله). قال الأعشى (من الخفيف): رُبَّ رَفْدٍ هَرَفْتُهُ ذَلِكَ الْيَوْمَ مَ وَأَسْرَى مِنْ مَعْشَرٍ أَقْتَالَ ف «هرفته»، و«من معشر» صفتان، له «رفد»، و«أسرى»، والفعل محذوف. (Zamaxshariy, Mahmud. 1987:286)

Bu ko'makchi birikma olmoshi bilan kelganida, o'zidan keyin kelgan so'z tushum kelishigida bo'ladi. Masalan:

- Birgina kishi

Shuningdek, birikmadagi ot so'z turkumidagi so'zga bog'lanib kelayotgan fe'l undan so'z qo'yilishi lozim. Aksariyat hollarda fe'l tushib qoladi. Huddi (يسم الله) birikmasida ko'makchisining kelishi natijasida "boshlayman" fe'li tushib qolgani kabidir.

O'sha kuni tortiq qilingan sovg'a ashaddiy dushman jamiyatidan kechasi olib kelingan edi.

Ushbu jumladagi so'zlari "هرفته"، و«من معشر» so'zlarining aniqlovchisi, fe'l esa tushib qoldirilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, so'zimizning boshida ko'makchisi o'zidan keyin kelayotgan so'z qaratqich kelishigida turishini aytib o'tgan edik. Lekin ushbu holatda, ya'ni ko'makchisi birikma

olmoshlari bilan birga kelganida undan keyin kelayotgan soʻz qaratqich kelishigida emas, balki tushum kelishigida boʻlishi lozim. Shu bilan birga bu koʻmakchidan keyin kelayotgan feʼl doim oʻtgan zamonda boʻlishi lozim. U haqida muallif quyidagicha keltiradi:

ومنها أن فعلها يجب أن يكون ماضياً، تقول: «رب رجل كريم قد لقيت»، ولا يجوز «سألقى» أو «ألقيت». وتكف بـ «ما»، فتدخل حينئذ على الاسم والفعل، كقولك: «رُبما قام زيدٌ»، و«ربما زيدٌ في الدار»، (قال أبو ذؤاد (من الخفيف

رُبما الجامل المؤبَّل فيهم وعُناجيجُ
بَيَّنَّهنَّ المِهَارُ

(Zamaxshariy, Mahmud. 1987:286)

Uning shartlaridan biri رُب koʻmakchisi bilan bogʻlanib kelayotgan feʼl oʻtgan zamonda boʻlishligidir. Masalan:

- «رب رجل كريم قد لقيت» Birgina saxiy odamni uchratdim

Bu koʻmakchi bilan “uchrataman” yoki “uchratsinlar” kabi kelasi zamondagi feʼllarni qoʻllab boʻlmaydi. Ism va feʼl kelgan holatda “رُب” koʻmakchisiga «ما» yuklamasi biriktirib «رُبما» murakkab predlog sifatida qoʻllaniladi. Masalan:

«رُبما قام زيدٌ» Birgina Zayd turdi -

ربما زيدٌ في الدار Birgina Zayd hovlida -

XULOSA

Arab tilida muhim rol oʻynaydigan koʻmakchilar, yaʼni predloglarning gapdagi vazifalari, yaʼni oʻzidan keyin kelayotgan soʻzlarning kelishigini boshqarish va shu yoʻl bilan gap mazmunini aniqlashtirish, baʼzi hollarda oʻzgartirish uchun ham xizmat qiladilar. Biz yuqorida koʻp qoʻllaniladigan koʻmakchilarning ayrimlari haqida “Al-Mufassal” asarida berilgan maʼlumotlarni tahlil qilib koʻrdik. Unga koʻra:

1. koʻmakchi va bogʻlovchi vazifalarida kelishi oʻrtasida katta farq bor. Agar koʻmakchi boʻlsa, undan keyin kelgan soʻz qaratqich kelishigida boʻladi va “baliqni boshigacha (yaʼni hammasi emas) yedim” maʼnosini anglatadi. Bordiyu bogʻlovchi vazifasida kelgan boʻlsa, undan keyin turgan soʻz tushum kelishigida boʻladi va “baliqni boshigacha (yaʼni boshini ham qoʻshib, hammasini) yedim” maʼnosini bildiradi.

2. koʻmakchisi baʼzida إلى maʼnosini anglatadi. Gohida esa tushirib qoldiriladi. Agar في tushirib qoldirilsa, uning majruri في oʻrniga oʻtib, tushum kelishigida turadi.

3. koʻmakchisini «حُرُوفُ الْجَزْرِ» oʻzidan keyin kelayotgan soʻzni qaratqich kelishigida turishini talab qiluvchi predloglarga hamda «حُرُوفُ النَّصْبِ» - oʻzidan keyin kelayotgan soʻzni tushum kelishigida turishini talab qiluvchi predloglar turiga ham qoʻshishimiz mumkin.

4. إلى معارضة لمن دالة على انتهاء “الـ” koʻmakchisi: “إلى” koʻmakchisi “min” ga teskari boʻlib, masofa yoki harakatning nihoyasini anglatadigan old koʻmakchi - سِرْتُ مِنَ الْبَصْرَةِ إِلَى الْكُوفَةِ - sirtu min-l-Basra ‘ilā-l-Kufa – Basradan Kufaga bordim. Zamaxshariy bu old koʻmakchining “المصاحبة” - ‘al-musāhibah – birgalik maʼnosini ham keltirgan, masalan: لا تأكلون أموالهم إلى - لا تأكلون أموالكم - lā taʼkuluna ‘amvālahum ‘ilā ‘amvālikum – Ularning molini oʻzingizning molingiz bilan birga yeb yubormang.

5. predlogini vaqtga nisbatan ham ishlatish mumkinligi isbotlanadi. يُضَيِّعُهُ مَنْ قَابِلٍ - Mana shu uning birgina oʻrin emas, balki payt holini vazifasida ham qoʻllanilishi mumkinligining isbotidir.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

- Гранде Б. М. (1998). Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. Москва.
- Гиргас В. (1873). Очеркъ грамматической системы арабовъ. СПб.: Типография Императорской Академии Наук.
- Иброхимов Н., Юсупов М. (1997). Араб тили грамматикаси. Тошкент.
- Mansur, Abdulaziz. (2012). Qurʼoni Karim maʼnolarining tarjima va tafsiri. Тошкент.
- a. NASIROVA, Malika. (2019). Scientific heritage of Makhmud Zamakhshari and actual questions of the studies of Mavarennakhrʼs linguistic school / The Light of Islam: Vol. 2019: Iss. 1, Article15. Availableat: <https://uzjournals.edu.uz/iaiu/> vol 2019/ iss 1 / 15
- b.NASIROVA, Malika. (2019). Incomplete conjunction of words in the arabic grammar / The Light of Islam: Vol. 2019: Iss.4, Article15. Availableat: <https://uzjournals.edu.uz/iaiu/> vol 2019/ iss 4/ 15
- NASIROVA, Malika. (2020). Semantic classification of auxiliary verbs in arabic language / The Light of Islam: Vol. 2020: Iss.1. Article16. Availableat: <https://uzjournals.edu.uz/iaiu/> vol 2020/ iss. 1/ 16
- NASIROVA, Malika. (2021). “Letters” And Their Description In Arabic Morphology / Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI). Volume 6, July 2021 : 6650 – 6654. Research Article
- Носирова, Малика. (2005). Махмуд Замахшарийнинг “ал-Унмузаж фи-н-нахв” рисоласи. Монография. Тошкент.
- Қосимова, Сарвиноз. (2019). XI-XIII асрларда Мовароуннахр тилшуносларининг араб грамматик назарияси бўйича илмий тадқиқотлари. Монография. Тошкент.
- Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. (2014). Тафсири Ҳилол. 1-жуз. Тошкент.
- Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. (2014). Тафсири Ҳилол. 2-жуз. Тошкент.
- Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. (2014). Тафсири Ҳилол. 3-жуз. Тошкент.
- ص. 240 2002 - القاهرة. أبو بكر على عبد العليم. دروس في الاعراب.

15. أبو بكر على عبد العليم. مكتبة الأسرة في النحو. القاهرة. 2014.
16. أنطون الدحدح. معجم القواعد العربية العالمية. -لبنان، 1992.
17. عباس حسن. النحو الوافي. - مصر. 2004 - ص. 147.
18. شرح المفصل لمحمود الزمخشري. الناشر دار الكتاب العلمية. 2001. بيروت لبنان. دكتور إميل بريغ يعقوب.
19. حسنى عبد الجليل يوسف الأردبيلي جمال الدين بن عبد الغنى. شرح الأنموذج في النحو للعلامة الزمخشري. مكتبة الآداب. القاهرة. 1990. ص. 231.
20. محمود الزمخشري. المفصل في صنعة الأعراب. مصر ، 1323 هـ. 1987م. ص. 408.
21. مصطفى غلاييني. جامع الدروس العربية. بيروت. 2002. - ص. 331.
22. فؤاد نعمة. ملخص قواعد اللغة العربية. - مصر. 1987- ص. 214.
23. موفق الدين أبى البقاء، يعيش بن على بن يعيش الموصلي. شرح المفصل للزمخشري. جزء رابع. - بيروت: دار الكتب العلمية، سنة ٢٠٠١.
24. فاضل صالح السامرائي أبو البركات بن الأنباري و دراياته النحوية. بيروت. 2016 - ص. 325.
25. السيد خليفة. الكافي في النحو. - مصر: دار التقوى. 2013. - ص. 642.
- nazariyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlari. Monografiya. -T.:TDSHI. (in uzbek)
11. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (2014). Tafsiri Hilol. 1-juz.-Tashkent (in uzbek)
12. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (2014). Tafsiri Hilol. 2-juz.-Tashkent (in uzbek)
13. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (2014). Tafsiri Hilol. 3-juz.-Tashkent (in uzbek)
14. Abu Bakr Ali Abd al-Alim (2002). Maktabat al-usrati fi an-nahv.-Al-Qohira.: Dar al-G'ad al-jadid. (in arabic)
15. Abu Bakr Ali Abd al-Alim (2002). Durus fi an-nahv li at-tullab va al-muallimiyn. -Al-Qohira.:maktabat al-Qur'an. (in arabic)
16. Antuan el-Dahdah (1992). Mu'jam qavaid al-arabiyya al-alamiyya. -Lubnan. (in arabic)
17. Abbas Hasan (2004). An-nahv al-vafi. -Misr. (in arabic)
18. Imil Bari Yakub (2001). Sharh al-Mufasssal li Mahmud az-Zamakshariy -Bayrut.: Dar al-kitab al- ilmiyya. (in arabic)
19. Husni Abd al-Jalil Yusuf al-Ardabiliy Jamal ad-din ben Abd al-Ganiy (1990). Sharh al-Unmuzaj fi an-nahv. -Al-Qohira.: Maktabat al-adab. (in arabic)
20. Mahmud az-Zamahshariy (1987). Al-Mufasssal fi san'ati-l-i'rab.-Al-Qohira. (in arabic)
21. Mustafo al-G'alayiniy (2001). Jami' ad-durus al-arabiyya.-Al-Qohira.: Al-maktaba al-asriyya. (in arabic)
22. Fuad, Ni'mat (1973). Mulahhas qavaid al-lagati al-arabiyyati.- Misr.: Nahda. (in arabic)
23. Muvaffaq ad-din Abi al-Baqa Yaish ben Ali ben Yaish al-Mavsuliy (2001). Sharh al-Mufasssal li az-Zamakshariy. -Bayrut. (in arabic)
24. Fadil Solih as-Samirraniiy (2016). Abu al-Barakat ibn al-Anbari va dirasatuhu an-nahviyya.-Bayrut, Lubnan. (in arabic)
25. As-Sayyid Xalifa, Tahir Sulayman (2013). Al-Kafi fi an-nahv. -Al-Qohira.: Dar al-taqva. (in arabic)

Интернет сайтлар:

26. www.arabdict.com
27. www.drmosad.com
28. www.al-ahram.org
29. www.al-axbar.org

REFERENCES:

1. Grade B.M. (1963). Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskoy osvyashenii. Moskva.
2. Girgas V (1873). Ocherk grammaticheskoy sistemi arabov . Spb.: Tipografiya Imperatorskoy Akademii Nauk.
3. Ibrohimov N.,Yusupov M. (1997) Arab tili grammatikasi. -Toshkent. (in uzbek)
4. Mansur, Abdulaziz (2012). Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. -Toshkent. (in uzbek)
5. Nasirova, Malika (2019). "Scientific heritage of Makhmud Zamakhshari and actual questions of the studies of Mavarennakhr's linguistic school" The Light of Islam: Vol. 2019: Iss. 1, Article 15. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/iiu/vol2019/iss1/15>
6. Nasirova, Malika (2019) "INCOMPLETE CONJUNCTION OF WORDS IN THE ARABIC GRAMMAR," The Light of Islam: Vol. 2019 : Iss. 4 , Article 15. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/iiu/vol2019/iss4/15>
7. NASIROVA, Malika (2020) "SIGNS AND CHARACTERISTICS OF ARABIC NON-DECLINABLE WORDS". The Light of Islam: Vol. 2020: Iss.1 Article16. Availableat: [tps://uzjournals.edu.uz/iiu/vol2020/iss.1/16](https://uzjournals.edu.uz/iiu/vol2020/iss.1/16)
8. NASIROVA, Malika (2021)"Letters" And Their Description In Arabic Morphology. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI). Volume 6, July 2021 : 6650 – 6654. Research Article
9. Nosirova, Malika (2005) Mahmud Zamakhshariyning "Al-unmuzaj fi-n-nahv" risolasi. Monografiya. -T.: TDSHI. (in uzbek)
10. Qosimova, Sarvinov (2019). XI-XIII asrlarda Movarounnahr tilshunoslarining arab grammatik

Интернет сайтлар:

26. www.arabdict.com
27. www.drmosad.com
28. www.al-ahram.org
29. www.al-axbar.org